

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON DAVLATLARIDA O'ZARO MADANIY ALOQALARNING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI

Malika O'rolova To'lqin qizi

O'qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Asrlar davomida o'zbek va tojik xalqlari o'zaro ahil- inoq, o'troq hayot kechirishi bilan birga, birga mehnat qilgan, yashash tarzi madaniyati bir-biriga chambarchas bo'g'langan. Amudaryo ikki xalqning bir daryo suvidan ichib yashashiga makon vazifasini o'tagan. So'nggi yillarda mamlakatlar o'rtasidagi qardoshlik rishtalari ya'nada mustahkamlandi. Buni ikki tomonlama madaniy sohadagi hamkorliklar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.*

Tayanch so'zlar: *Millatlararo totuvlik, do'stlik, o'zaro hurmat, tojik milliy markazlar, yaxshi qo'shnichilik*

O'zbekiston davlatining eng yaqin, qardosh xalqi va strategetik hamkori qo'shnisi bu Tojikiston Respublikasidir. Tojikiston ko'hna va qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lib mamlakatda o'ziga xos san'at, shaharsozlik bobida yuksak did va mahoratga ega. O'zining betakror tarixiy makonlari bilan butun dunyoga mashhur va ma'lumdir. Hozirgi kunda Tojikistonda 3000 dan ziyod qadimiy va madaniy obidalar, 6 ta davlat majmuasi va tarixiy- madaniy qo'riqxonalar, turli tarixiy- etnografik muzeylar va ko'plab arxeologik inshootlar mavjud. Bugun O'zbekistonda 1,8 millionga yaqin tojik millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qilmoqda, mamlakatimiz rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Keyingi yillarda ikki davlatning madaniy sohadagi hamkorlik va munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishini quyidagicha e'tirof etsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Qonun, qaror va farmonlarda madaniyat sohasidagi munosabatlarning qonun bilan mustahkamlanishi. Jumladan, 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo munosabatlar sohasida belgilandan vazifalar doirasida 40 ortiq me'yoriy – huquqiy hujjatlar- 2 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis qarorlarida belgilab qo'yildi.³⁹

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar negizida xalqlar bilan jumladan, qardosh xalqlar bilan madaniy muhitni rivojlantirish, uni

³⁹ «Халқ сўзи» gazetasi № 31 15.02.2023



saqlash va keyingi avlodga yetkazish bilan birga ,do'stlik, o'zaro hurmat tuyg'ulari muhim ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. Madaniy markazlar faoliyatini tubdan yangilash va rivojlantirish hamda ularning hududlarda filliallarini joriy etish. Tojik milliy madaniy markazi O'zbekistonda 2008 yili tashkil qilingan, bugungi kunga kelib uning tarkibiy tuzilmasida Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Farg'ona viloyatlaridagi hududiy bo'linmalari bor. Buxoroda — "Oftobi So'g'diyon" tojik fors markazi, Toshkentda tashkil etilgan "Oriyono" hamda Chirchiq shahridagi "So'g'diyona" markazlari faoliyat yuritmoqda. Sharqning buyuk olimi va shoiri Firdavsiy tavallud topgan kunini nishonlash, forstojik adabiyotining asoschisi Rudakiyning 1150 yillik yubileyi, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy Balxiy, Mir Ali Hamadoniy, yozuvchi va shoir Sadridin Ayniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar tojik milliy madaniy markazlarda yuqori saviyada tashkil etildi. Samarqand, Termiz va Farg'ona davlat universitetlarida, 245 ta umumta'lim maktabida o'qitish tojik tilida olib borilmoqda, tojik tilida chop etilayotgan 4 davriy bosma nashr mavjud, o'nlab teleko'rsatuv va radioeshittirishlar efigra uzatilmoqda.⁴⁰ 2018- yil "Tong yulduzi" mahallasida o'zbek- tojik madaniyat markazi foydalanishga topshirildi. Chinoz tumanidagi "Tong yulduzi" mahallada keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari bajarildi. Qishloqni obodonlashtirish chog'ida, bu yerda ko'proq tojik millatiga mansub fuqarolar yashashi inobatga olinib, o'zbek va tojik xalqlarining urf-odat hamda an'analarini yaqqol aks ettirishga alohida e'tibor qaratildi. Eng go'zal binoda o'zbek — tojik madaniyat markazi joylashtirildi. Bu yerdagi kutubxonada o'zbek va tojik mumtoz adabiyoti durdonalari bilan bir qatorda, zamondosh yozuvchi hamda shoirlar asarlari jamlangan. O'quv va anjumanlar zali, tibbiyot xonasi zarur asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

2020 –yilning avgust oyida Farg'ona viloyatining Rishton tumanida O'zbek- tojik uyining ochilishi ushbu sohada erishilgan yutuqlardan biri hisoblanadi. Ushbu muassada madaniyat kechalari, she'riy mutolalar va ilmiy davra suhbatlari o'tkazilib kelinmoqda. Bu ikki xalqning madaniyatlari, turmush tarzlari, urf- odatlari va xalq san'ati- barchasi juda yaqin, ayrim hollarda esa, ularni ummuan ajratib bo'lmaydi. Adabiyot, san'at va musiqa va boshqa turli xil sohalarda tanlov, ko'rgazma, tadbir va konferensiyalarning tashkil etilishi ham bu sohada erishilayotgan yutuqlar sarasiga kiradi. Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan To'xtamish To'xtayev, Abdullo Subxon, Ja'far Muhammad, Fayz Muhammad, Yunus Imomnazar, Muhammadjon Shodiyev, Asadullo Shukurov kabi zamonaviy mualliflar bilan ijodiy uchrashuvlar ,

⁴⁰ Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonoti 2018- yil 17- 18- avgust



kechalar tashkil etilib , o'zaro madaniy sohadagi hamkorligimiz rivojlantirishga hissa qo'shib kelmoqda. Markazlar tomonidan har yili Tojik tili kuni, tojik xalqining tarixi va madaniyati bo'yicha o'ziga xos tanlovlar, shoirlar va adabiyot ahli o'rtasida mushoira, taniqli tojik rassomlari — Muborak Yo'ldoshev va Zayniddin Mirzoyev kartinalarining ko'rgazmalari tashkil etilgan. Markazlarda o'tkazilayotgan bir qator tadbirlar, jumladan O'zbekistonning milliy va davlat bayramlari, tojiklarning xalq bayrami "Mehrگون" — hosil bayrami va boshqalar "Ovozi tojik", "Ovozi Samarqand", "Xovar" kabi tojik tilida chiqadigan gazetalarda va O'zbekiston teleradiokompaniyasining "Ranginkamon", "Yagona oilada" teleko'rsatuvlarida keng yoritilib boriladi.⁴¹ 2017-yil O'zbekiston va Tojikiston madaniy munosabatlarida yangi sahifa ochildi. Chunki shu yilning 10-12 may kunlari Tojikistonda O'zbekiston madaniyat kunlari bo'lib o'tdi. O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida 55 nafar artist va musiqachi o'rin oldi. Jumladan, O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Yoqubov va Mahmud Namozov, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist Sobirjon Mo'minov, xononda Sevinch Mo'minova hamda "O'zbekiston" davlat ashula va raqs ansambli O'zbekiston san'ati va madaniyatini namoyon etdi.⁴²

O'zbekiston madaniyat kunlarining asosiy tadbirlari Dushanbe, Qo'rg'ontepa va Tursunzoda shaharlarida konsert dasturlari o'tkazildi. Yurtimizda 11-13 oktabr kunlari Tojikiston madaniyat kunlari bo'lib unda ikki davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda kelishuvlar imzolandi. Madaniyat kunlari davomida, O'zbekiston tasviriy san'at galereyasida "Zamonaviy Tojikiston" fotoko'rgazmasi va tojik xalq hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik Katta teatrida tantanali ochilish va konsert dasturi, Alisher Navoiy nomidagi kino saroyida "Istinny polden" filmining namoyishi, O'zbekiston davlat konservatoriyasida Tojikiston san'at ustalarining konserti, Alisher Navoiy nomidagi kino saroyida "Uchitel" badiiy filmi namoyishi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik Katta teatrida tantanali yopilish marosimlari bo'lib o'tdi. 2020- yil 28- sentabrda Tojikiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov boshchiligidagi bir guruh ziyolilar qator ijodiy uchrashuvlar bo'ldi. Tojikiston milliy kutubxonasida ikki davlat madaniyat vazirlari Ozodbek Nazarbekov va Zulfiya Davlatzodaning muloqoti bo'lib o'tdi. Unda ikki davlat o'rtasida imzolangan madaniy sohadagi turli xil takliflar muhokama qilindi. Shuningdek O. Nazarbekov tomonidan har ikkala davlatda saqlanayotgan o'zbek va tojik xalqlari tarixi, adabiyoti va madaniyatiga oid kitoblarning nusxalarini almashish taklifi ilgari surildi. Tojik millatiga mansub yurtdoshlarimizni mehnatini ulug'lash,

⁴¹ Interkomitet.uz

⁴² Gazeta.uz 16-may 2017



unvon va ko'krak nishonlarning berilishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Sharpovich Rahmon qardosh o'zbek va tojik xalqlarining ko'p asrlik o'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlash, O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy sohalardagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish ishlariga qo'shgan alohida hissasi uchun "EI- yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi.⁴³

To'xtayev To'xtamish Davlatovich - "Ovozi tojik" gazetasi tahririyati bo'lim muharriri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir "Do'stlik " ordeni bilan mukofotlandi. Mamlakatimizda keying yillarning o'zida tojik millatiga mansub 130 fuqaro yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi.⁴⁴ Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, "O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Quvonchu tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu an'analarini davom ettirib, xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak".

Xulosa o'rnida, qadimdan o'zbek- tojik xalqlari yagona tarixiy davrni bosib o'tib, asrlar mobaynida o'zining o'lmas ijodi, moddiy –madaniy qadriyatlari va ana'lari bilan bir –biriga chambarchas bo'langan. Azal- azaldan xalqimiz bir daryoning ikki irmog'idan suv ichib , qo'shnichilik ana'nalarini yaqin qarindoshchilik aloqalari bilan bog'lagan. Shu munosabat bilan o'xshash madaniyat, urf- odatlar, yagona din, o'lmas qadriyatlarga boy millatlar sifatida tilga olinadi. Shuni ta'kidlash joizki, bu kabi mustahkam aloqalar kecha yoki bugun vujudga kelib qolmadi, balki mingyillar davomida xalqlarimizning qon – qoniga singib ularning ma'naviy olamida hamda madaniy hayoti davomida shakllanib , sayqallanib kelmoqda. Kelgusida qardosh ikki xalq o'rtasidagi mustahkam do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik singari ana'nalarni , tarixiy- madaniy saqlab qolish yo'lida mustahkam boydevor yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

⁴³ Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrfi doirasida Tojikiston va O'zbekiston san'at ustalari ishtirokida tashkil etilgan konsert dasturining tantanali ochilish marosimidagi nutqi 2018-yil 17- avgust

⁴⁴ Yangi O'zbekiston gazetasi 11-iyun 2021



1. Shavkat Mirziyoyevning “ Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi”3, Toshkent- “O’zbekiston”-2019
2. Mansuz Omonov “Xalq diplomatiyasi va Markaziy Osiyoda zamonaviy hamkorlik” T- 2022
3. Пардаев, Тошкентбой Ражабович, and Жавли Нарзуллаевич Турсунов. "МУСТАБИД ТУЗУМНИНГ МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА МУНОСАБАТИ." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 23 (2019).
4. Ismatov, Islombek, and Odil Bo’riyev. "STRATEGY OF ACTION IN THE NEW UZBEKISTAN, THE LEGAL BASIS FOR THE GLORIFICATION OF HUMAN DIGNITY." Инновационные исследования в науке 1.14 (2022): 4-9.
5. Qobilovich, Bo’riyev Odil. "UK LEGAL SYSTEM IN HUMAN VALUE OUT BE CARRIED." Open Access Repository 9.4 (2023): 334-338.
6. Muhammadjon, Mamatkulov, and Bo’riyev Odil Qobilovich. "TYPES OF PUNISHMENT FOR CRIMES AGAINST JUSTICE." Conferencea (2022): 229-232.
7. Bo’riyev, Odil Qobilovich. "O „ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI–INSON QADRINI ULUG „LASH, ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ KAFOLATI." Academic research in educational sciences 3.TSTU Conference 2 (2022): 492-497.
8. Bo’riyev, Odil Qobilovich. "KONSTITUTSIYADA INSON QADRI ULUG ‘LANISHINING TA’MINLANISHI." Academic research in educational sciences 3.TSTU Conference 2 (2022): 498-503.
9. BO’RIYEV, O. D. I. L., and DURDONA HAMROQULOVA. "LEGAL IN YOUTH IN ENSURING HUMAN DIGNITY EXALTATION OF CONSCIOUSNESS AND CULTURE." Академические исследования в современной науке 1.16 (2022): 17-21.
10. BO’RIYEV, O. D. I. L., and DURDONA HAMROQULOVA. "HIGHLY SPIRITUAL IN ENSURING HUMAN VALUE RAISING YOUNG PEOPLE IS THE HIGHEST GOAL." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 1.5 (2022): 213-217.
11. Tursunov, Zhovli Narzullaevich. "The Contribution of the Southern Regions to the Economy of Uzbekistan During 1970-1980s." European Journal of Humanities and Educational Advancements 2.5 (2021): 186-188.
12. Пардаев, Тошкентбой Ражабович, and Жавли Нарзуллаевич Турсунов. "САНОАТДА МАҲАЛЛИЙ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШГА ТАРИХИЙ НАЗАР." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 26 (2019).



13. Пардаев, Тошкентбой Ражабович, and Жавли Нарзуллаевич Турсунов. "МУСТАБИД ТУЗУМНИНГ МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА МУНОСАБАТИ." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 23 (2019).

14. Турсунов, Жовли Нарзуллаевич. "Трудовой подвиг населения Сурхандарьинской области в годы Второй мировой войны." Вестник науки и образования 24-1 (102) (2020): 31-34.

15. TURSUNOV, ZHOVLI NARZULLAEVICH. "STAGES OF ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AFTER THE SECOND WORLD WAR." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука (Тараз) 9 (2021): 311-313.

16. Турсунов, Ж. Н. "История экономического и социального развития городов Узбекистана (на примере городов Байсун, Шаргун, Шурчи). 1971-1990." Автореф. дисс.... кан. ист. наук. Самарканд, Институт археологии при Академии наук Узбекистана (1995).

17. Razhabovich, P. T., and T. Z. Narzullaevich. "A LOOK INTO THE HISTORY OF THE PREPARATION OF LOCAL PROFESSIONALS IN THE INDUSTRY." Ўтмишга назар журнали 26.2 (2019).

18. Pardaev, T. R., and Z. N. Tursunov. "THE ATTITUDE OF THE DESPOTIC REGIME TO NATIONAL AND RELIGIOUS VALUES." Ўтмишга назар журнали 23.2 (2019).

19. Юсупович, Қўшоқов Сафарали. "ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИ ТАЛҚИНИ ВА УНИНГ МОДДИЙ МАДАНИЯТДА АКС ЭТИШИ." Scientific Impulse 1.12 (2023): 246-251.

20. Isaev, O. A. "The Categories of Early Farmers Residing in the Surkhan Oasis in the 20-30s of the 20th Century." European Journal of Learning on History and Social Sciences 1.1 (2023): 108-111.

21. Isaev, O. A. "The Categories of Early Farmers Residing in the Surkhan Oasis in the 20-30s of the 20th Century." European Journal of Learning on History and Social Sciences 1.1 (2023): 108-111.

22. Oybek, PhD Isaev. "In the Study of the History of Surkhandarya in the 30s of the XX Century, as a Historical Source." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 7 (2022): 100-102.

23. Isaev, O. A. (2021). From the Memories of Those Displaced as a Result of the Policy of Resettlement in the 1920-1930s of the XX Century (On the Example of the Surkhandarya Oasis). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 2(10), 62-65.



24. Tukhtaev, Abdugani K. "The Role of Tourism in the Surkhandarya Oasis." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 9.1 (2022): 169-172.
25. Tukhtaev, Abdugani K. "The Role of Free Economic Zones in the Economy of Uzbekistan." *International Journal of Social Science Research and Review* 5.1 (2022): 1-4.
26. Тухтаев, Абдугани Киличович, and Бахтияр Сатторович Сафаров. "ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ МИРОВЫХ ДЕНЕГ." *Вестник науки и образования* 24-1 (102) (2020): 35-38.
27. Тухтаев, Абдугани Киличович. "Роль сельского хозяйства в экспортном потенциале Узбекистана." *Бюллетень науки и практики* 6.10 (2020): 174-178.
28. Турсунов, С., and А. Тўхтаев. "Жарқўрғон." Т.: Фан (2008).
29. Kushokov , S. (2023). EARLY RELIGIOUS SIGNS OF THE TERRITORIES OF UZBEKISTAN. *Research and Implementation*, 1(3), 71–77
30. Yusupovich, Kushakov Safarali. "ORTA OSIYODA ILK DINIY QARASHLARNING OZIGA XOSLIGI." *Scientific Impulse* 1.11 (2023): 115-120.
31. Yusupovich, Kushokov Safarali. "FACTORS WHICH ARE THE BASIS OF THE FIRST RELIGIOUS VIEWS." *Scientific Impulse* 1.11 (2023): 140-145.
32. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.
33. Расулов Ҳ. Сиёсат–маданият, ҳодиса ва фан сифатида //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 691-702.
34. Расулов Х. М. Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – №. SI-1№ 3.
35. Расулов, Ҳ. М. (2022). СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 863-867.
36. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
37. Расулов Ҳ. М. СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 863-867.





38. Расулов Х. М. ТЕХНОЛОГИИ ОБЪЯСНИТЕЛЬНО-РЕПРОДУКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2020. – №. 3. – С. 45-49.

39. Ramazanovich, N. M. (2022). IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 322-328.

40. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

41. Mallaev, N. R., & Djalilov, S. S. (2021). Political and Legal Mechanisms of the Fight against Corruption in Uzbekistan and High Effective Measures against It. International Journal of Development and Public Policy, 1(7), 1-4.

42. Mallaev, N. R., & Djalilov, S. S. (2021). Establishment of Legal Mechanisms in the Fight Against Corruption in Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 4-8.

